



# KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№7 (817), 2026-yil 10-aprel

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz

■ **Dolzarb mavzuda suhbat**

## IZLANISH VA INTILISH

### ISHLAB CHIQRISH MUAMMOLARINI HAL ETISHNING ASOSIY SHARTIDIR

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining faxri hisoblangan 2-gidrometallurgiya zavodi ahil jamoasi ma'danni qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi yil sayin oshirmoqda. Bu, korxonada mutaxassislarining yuksak salohiyatidan darak beradi. Zavod direktori Jasur Abdullayev bilan bo'lgan suhbat ishlab chiqarish jarayonlarida vujudga kelayotgan murakkabliklar va ularni ilm-fan yutuqlari, to'plangan boy tajriba va qat'iy intilish bilan hal etish haqida bordi. Quyida ana shu suhbatni e'tiboringizga havola etamiz.

– Zavodimizda qayta ishlanadigan ma'danning kimyoviy va mineralogik tarkibi o'zgarishi ba'zi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammolar ma'danning qattiqlashuvi hamda qimmatbaho metallarni o'zlashtirish jarayonining murakkablashishi bilan bevosita bog'liqdir.

Ma'dan tarkibidagi modda va elementlar nisbati yoxud joylashuv shakllarining o'zgarishi deganda qimmatbaho metallar erkin holda emas, balki sulfid minerallari yoki uglerod bilan birikmada uchrashi ko'zda tutiladi.

Gidrometallurgiyada ma'dandan asl va nodir elementlarni ajratishga, ayni vaqtda qazilma boyliklarning kimyoviy tarkibiga ta'sir o'tkazmasdan, qimmatbaho komponentlarning tarkibini boyitishga qaratilgan turli xil, jumladan, sorbsiya, flotatsiya, magnit separatsiya, ishqorga o'tkazish va boshqa usul hamda uslublar qo'llaniladi. Hidrometallurgik sanoatda qaysi uslubdan foydalanilishidan qat'iy nazar, har bir jarayondan ko'zlangan yagona maqsad – metall ajratib olishda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishdir. Bugungi kunga qadar 2-GMZda asosan sorbsion eritmaga o'tkazish, qisman gravitatsion jarayondan foydalanib kelinadi.

“Muruntov” konidan qazib olinadigan ma'dan tarkibidagi qimmatbaho komponentlarning nisbatan siyraklashuvi,

bundan tashqari, konda tobora chuqur qazishma ishlari natijasi o'laroq pastki qatlamlarda ma'danning sulfidli, qiyin qayta ishlanadigan shixtalarga boyligi zavodda qayta ishlash jarayonini murakkablashtirmoqda. Kombinatsion rahbariyati mutaxassislarimiz oldiga tekzor chora izlash, ishlab chiqarishga yangi loyihalarni joriy qilish vazifasini qo'ydi.

“Balpantov” va “Besapantov” konlaridan ma'dan qazib olishni yo'lga qo'yish shu choralar sirasidan bo'ldi. Bir necha yil davomida bu konlarning ustki qatlamlaridan olingan ma'dan qayta ishlash ko'rsatkichlari bir me'yorda o'sib borishiga yordam bergan bo'lsa-da, so'nggi yillarda sulfidli birikmadagi ma'danlar ko'payib qolganligi kuzatildi. Bu, 2-GMZ qayta ishlash texnologiyasiga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymas edi.

Bunday sharoitda muammoga yechim topish – ma'dan tarkibidagi qimmatbaho metallarni ajratib olishning eng muqobil texnologiyasini izlash bo'yicha dastur qabul qilish zaruriyati tug'ildi. Dastur kombinatsion rahbariyati tomonidan 2025-yilning 7-mayida tasdiqlandi. Ishlar rejasiga ko'ra, Markaziy kon boshqarmasi va Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasidan bir guruh mutaxassislar hamkorlikda ishlashi hamda salkam bir oy muddatda o'z xulosalarini bayonlashtirishlari shart qilib qo'yildi.

Mazkur dastur doirasidagi laboratoriya tadqiqotlaridan kuzatilgan maqsad birinchidan, namunalarni kimyoviy, spektral va ratsional tahlil qilish; ikkinchidan, ma'danning asosiy tarkibiy qismlarini o'rganish; uchinchidan, ma'danlarning sorbsion faolligi darajasini aniqlash; to'rtinchidan, oltinni sorbsion sianlash tuzilmasi bo'yicha ajratib olish imkoniyatlarini tadqiq etish va nihoyat, qimmatbaho metallarni ajratib olishning eng muqobil texnologiyasini topishdan iborat bo'ldi. Tahlil natijalariga ko'ra, “Balpantov” konidan keladigan ma'danni qayta ishlashda muqobil texnologiya – flotatsion-sorbsion tuzilma bo'lib chiqdi. Bu holda oltin ajratib olish darajasi – 73,6 foizni ko'rsatgan bo'lsa, o'z navbatida “Besapantov” konlaridan qazib olingan ma'dan uchun eng muqobil texnologiya – graviokonsentratlarni sianlash yo'li bilan zamonaviy gravitatsion-sorbsion tuzilmani qo'llash bo'ldi. Bunda oltin ajratib olish darajasi – 84,1 foiz ko'rsatkichni berdi. Mazkur kon ma'danining o'ziga xos mineralogik tarkibi, xususan oltin zarralarining o'ta mayda va tarqoq holatda ekanligi zavodimizda qo'llaniladigan an'anaviy gravitatsion-sorbsion tuzilma ushbu ma'danni qayta ishlashda yetarlicha samara bermasligini ko'rsatmoqda. Ayni paytda 2-GMZda “Muruntov” konidan qazib olingan ma'dan qayta

ishlanmoqda.

Sulfidli minerallari bo'lgan ma'danlarda oltin qisman sulfidlar bilan bog'langan, qisman erkin holda uchraydi hamda ular qiyin boyitiluvchi ma'danlar qatoriga kiradi. Sulfidli ma'danlardan nodir metallarni to'g'ridan-to'g'ri sianlash yo'li bilan ajratib bo'lmaydi. Bunday ma'danlarni boyitishda flotatsiya usulidan keng foydalaniladi. Shuni ham inobatga olish joizki, flotatsion usulda boyitish oltinning bir qismining ucha konsentratga o'tkazishi mumkin. Bu uslub ham oltinni to'laigicha birikmadan ajratib olish imkoniyatini ta'minlamaydi. Qiyin qayta ishlanadigan ma'danlarni qayta ishlashda zamonaviy texnologiyalar, yakuniy tovar mahsulotini olishdagi asosiy uslub, texnologik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muqobil variant sifatida sianlashga katta ahamiyat beriladi. Demak, “Muruntov” konidan tarkibidagi qimmatbaho metallar siyraklashib borayotgan ma'danni qayta ishlash texnika va texnologiyasini takomillashtirish bilan birga, “Balpantov” va “Besapantov” konlaridan qazib olingan ma'danga ishlov berishga ixtisoslashgan boshqa obyektlar qurish masalasi ham muhim bo'lib qolmoqda.

Davomi 2-betda ▶

■ **Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligiga**

## ISHTIROKCHILAR FAOLLIGIDA

Ikkinchi Uyg'onish davri – Temuriylar Renessansi bunyodkori Amir Temur qadim Turonzaminda markazlashgan davlatga asos solgan buyuk tarixiy shaxsdir. Temuriylar davrining barcha jabhalardagi boy merosini chuqur o'rganish bugungi minnatdor avlodning burchi hisoblanadi.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yilning 5-fevralida imzolangan “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiyi sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to'g'risida”gi qarori barcha ishlab chiqarish korxonalarini, madaniyat muassasalari jamoalari, ayniqsa yoshlar uchun dasturlamal bo'lib xizmat qilishi tabiiy hol, albatta. Qarorda har yili aprel oyini “Amir Temur oyligi” deb e'lon qilish va uning doirasida muassasalar, mahallalar, korxonalar va tashkilotlarda temurshunos olimlar, yozuvchi va san'atkorlar ishtirokida uchrashuvlar, badiiy-ma'rifiy tadbirlar uyushtirish belgilab qo'yilgan.

Kombinat rahbariyatining mazkur qaror ijrosini ta'minlash to'g'risidagi buyrug'iga muvofiq “NKMK” AJda qator ma'rifiy tadbirlar amalga oshirildi. Ulardan ko'zlangan maqsad buyuk bobokalonimiz, sohibqiron Amir Temurning dunyo tamadduniga qo'shgan beqiyos hissasini keng jamoatchilikka yetkazish, yoshlar ongida ulug' ajdodlari bi-

lan faxrlanish tuyg'ularini uyg'otishdan iboratdir.

Kombinatning barcha yirik bo'linmalarida sohibqiron Amir Temurning mohir sarkarda va ulug' davlat arbobi sifatidagi faoliyati mavzusida ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Ularda Samarqand davlat universiteti va Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti professor-o'qituvchilaridan A.O'ngalov, N.Berdiyev, O.Islomov, N.Sunnatov, M.Abdurahmonov, V.Xalilov, M.Toshpo'latov, D.Islomova, O.Bahriddinovlar Amir Temur va Temuriylarning davlatchilik, madaniyat va ilm-fan borasidagi xizmatlari haqida qiziqarli ma'ruzalar qildilar. Tadbirlarda ishtirokchilar sohibqironning adolati davlat arbobi, ilm-fan homiyi ekanligi, dunyo ahlini lol qoldiradigan bunyodkorligi xususida qimmatli ma'lumotlar ega bo'ldilar. Shu boisdan ma'naviy tadbirlar ishchi-xizmatchilarning faolligida o'tdi. Ishirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga to'liq javoblar oldilar.

N.XAYRIDINOV.

## QIZIQARLI ANJUMAN



Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasini tomonidan buyuk davlat arbobi va sarkarda, Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan ma'rifiy uchrashuvda tarixchi olimlar hamda talaba yoshlar ishtirok etdi.

Anjumanda tarix fanlari doktori, professor Shodmon Hayitov Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o'rni hamda ahami-

yati to'g'risida ma'ruza qildi. Olimlarning dolzarb fikrlari barchada chuqur taassurot qoldirdi.

Uchrashuv davomida Turon Fanlar akademiyasi madaniyat va san'at bo'yicha ma'ruza qildi. Uchrashuvda turon fanlar akademiyasi madaniyat va san'at bo'yicha ma'ruza qildi. Uchrashuvda turon fanlar akademiyasi madaniyat va san'at bo'yicha ma'ruza qildi.

Ozod MUSTAFOYEV.

■ **Kasb bayrami: sarhisob va reja**

## YER QA'RI SIRLARINI OCHAYOTGANLAR

Tabiat bag'rida yashiringan boyliklar inson hayoti va mamlakat taraqqiyoti uchun beqiyos ahamiyatga ega. Ana shu xazinalarni izlab topish, ularning manbasini aniqlash va kelajak avlodlar manfaati yo'lida o'rganish geologlar zimmasidagi mas'uliyatli vazifalardan biridir. Ular tog'lar bag'rida, sahro va cho'llar qa'rida mehnat qilib, er osti boyliklarini qidirib topayotgan fidoyi insonlardir.

Geologiya sohasi fidoyilarining mehnatlarini sharaflash maqsadida yurtimizda bir necha yildan beri aprel oyining birinchi yakshanbasi geologiya sohasi xodimlari kuni sifatida keng nishonlanib kelinadi.

Geolog kasbi – jasorat, sabr va matonati talab etadigan mashqatli soha. Bu kasb egalari tabiat qo'nyida, ba'zan odam qadam boshmagan hududlarda izlanish olib boradilar. Ular har bir toshni sinchiklab o'rganadi, har bir qatlarni tahlil qilib, yer bag'rida yashiringan qimmatli qazilmalarni aniqlaydi. Quyoshning jazirama issigi, shamolli saharlar yoki tog'li hududlarning qiyin sharoiti ham ularni o'z yo'lidan qaytarmaydi. Geologlar mehnati tufayli yangi konlar kashf etiladi, tabiiy boyliklar zaxirasi aniqlanadi va mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim manbalar ochiladi. Ular olib borayotgan ilmiy izlanishlar konchilik sanoati taraqqiyotiga, yangi ishlab chi-

qarish quvvatlarini yaratishga xizmat qiladi. Shu bois geologlar nafaqat tabiatni o'rganuvchi olimlar, balki yurt ravnaqiga hissa qo'shuvchi fidoyi mutaxassislar sifatida qadrlanadi.

“NKMK” AJ Markaziy kon boshqarmasining geologiya bo'limi xodimlari ham kon boshqarmasiga qarashli gidrometallurgiya zavodlarini zarur miqdorda va sifatli xomashyo bilan ta'minlash, qimmatbaho metallar ishlab chiqarish bo'yicha buyurtmasini bajarish yo'lida fidokorona mehnat qilishmoqda. Konlarni o'rganish, zaxiralarni oshirishni rejalashtirish, ekspluatatsion o'rganish, kon ishlarini nazorat qilishning usul va yo'llarini ishlab chiqish, ma'danni omborlarga joylashtirish, ularni ro'yxatga olish, konlarni chuqurlashtirish loyihalarini ishlab chiqish bilan bog'liq muhim masalalarni geologiya bo'limi xodimlari amalga oshiradi.

“Muruntov” konida ma'dan qazib olish hajmi



yildan-yilga ortib borishi va qazib olish sathlarining chuqurlashuvi natijasida geologik nazorat ishlari ko'lami ham kengayib bormoqda. Bo'limning tajribali geologlari tomonidan qazib olish jarayonlari doimiy nazorat qilinishi bilan birga geologik qidiruvlar natijasida yuzaga kelayotgan

muammolar ham o'z vaqtda bartaraf etilmoqda. Hozirgi vaqtda konda ilgari namna burg'lash usuli yordamida qazish ishlari olib borilmoqda. Bu usulning afzalligi shundaki, konning chuqur qismida joylashgan rudalar tarkibida qimmatbaho metallarning miqdori va kimyoviy tarkibi-

ni tekzor ravishda o'rganishda aniqlik darajasi yuqori. “Muruntov” shaxtasida faoliyat olib borayotgan geologlar tomonidan karyerning pastki sathlarini suvdan quritish ishlari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari boshqarma geologlari ilmiy-tadqiqot institutlari va “O'zbekgeologiya” qidiruv va mineral resurslar instituti bilan hamkorlikda “Besapantov” va “Balpantov” konlarining oltin tarkibli ma'danlarini mineralogik-texnologik jihatdan o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirishmoqda. Tadqiqotdan ko'zlangan maqsad, kondagi ma'danning kimyoviy tarkibini o'rganish, qimmatbaho metallarni saqlovchi minerallarning miqdori, sifat, asosiy va hamroh komponentlarning mavjudligini hamda namunalarining boyitilish xususiyatlarini texnologik, kimyoviy-analitik zamonaviy tahlil usullari orqali aniqlashdir. Bugungi kunda kon boshqarmasining “Muruntov”, “Besapantov”, “Oltinni uyumda eritmaga o'tkazish sexi” konlari, “Muruntov” shaxtasi, Gamma-aktivlashtirilgan tahlil markaziy laboratoriyasining geologiya xizmatlari va kon boshqarmasi bosh geologiya bo'limida 200 nafarga yaqin malakali, jonkuyar mutaxassis kadrlar faoliyat olib borishmoqda.

Aziza IRISOVA.

## ■ Bilimli yoshlar – kelajak egalari

Navoiy shahridagi “So‘g‘diyona” sport majmuasi yirik intellektual forum — O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi korxonada va tashkilotlar xodimlari o‘rtasidagi “Zakovat” musobaqasiga mezbonlik qildi. Ushbu tadbir soha xodimlarining kasbiy mahorati, yuqori intellektual salohiyatini namoyish etdi. Musobaqa oldidan ishtirokchilar uchun “NKMK tarixi” muzeyiga ekskursiya tashkil etildi. Kombinatarixi bilan tanishish bilimdonlarga o‘zgacha kayfiyat bag‘ishladi.



# “ZAKOVAT” NAVIOIYDA

## Barcha faxrli o‘rinlarni NKMK jamoalari qo‘lga kiritishdi

Intellektual o‘yinning tantanali ochilish marosimida “NKMK” AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Quvonidq Sanaqulovning soha xodimlari va zakovatchi yoshlarga yo‘llagan bayram tabrigi o‘qib eshittirildi. Mazkur qutlovni NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi raisi Isroil Rahmatov jamoaga yetkazar ekan, kombinat rahbariyati tomonidan bilimni, dunyoqarishni keng kadrlarni tayyorlashga qaratilayotgan alohida e‘tiborni ta‘kidladi. “Zakovat” intellektual klubi prezidenti Abdurasul Abdullayev so‘zga chiqib, ilm-ma‘rifat maydonida peshqadam bo‘lib kelayotgan yoshlarga omad tiladi.

Musobaqada vazirlik tizimidagi 21 ta yirik korxonada va tashkilotdan saralab olingan 48 ta jamoa, jumladan, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining eng kuchli 9 ta jamoasi ishtirok etdi.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, Shimoliy kon boshqarmasining “Alfa” jamoasi 1-o‘rinni, Markaziy kon boshqarmasi jamoasi 2-o‘rinni hamda Navoiy mashinasozlik zavodining “Impuls” jamoasi 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Tadbir yakunida g‘olib va sovrindorlarga tashkilotchilar tomonidan qiymatbaho sovg‘a va diplomlar topshirildi. Bunday keng ko‘lamli tadbirlar sohada faoliyat yuritayotgan minglab xodimlarning ma‘naviy-intellektual dunyoqarishini kengaytirishga xizmat qilishi shubhasiz.

tual salohiyatini yuqori darajada namoyish etdi. Faqatgina teran bilim ega mutaxassis murakkab texnologik jarayonlarni boshqarishga, xomashyo bazasini kengaytirishga va yurtimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirishga munosib hissa qo‘sha oladi. Bilimdonlarimiz safining kengayib borayotgani buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar vo-yaga yetayotganidan, jamiyatimizda ilmga bo‘lgan ehtiyojning ortayotganidan dalolat beradi. Ibn Sino, Xorazmiy va Ulug‘beklarning qoni oqayotgan avlod bugun dunyo sahnalarida, mantiqiy bahslar va ilm maydonlarida o‘z so‘zini aytmoqda. Ilmga bo‘lgan qiziqish – kelajakdagi muvaffaqiyatlarimiz kalitidir. Agar jamiyatda insonlar bilim olishga intilsa, demak, biz to‘g‘ri yo‘ldan ketmoqdamiz. Chunki faqat bilim va zukko insonlarga har qanday qiyinchilikni oson yengib o‘tadi va yurtimizni yanada rivojlantiradi.

Ko‘pchilik mendan: “Nima uchun kitobxonlikka bunchalik urg‘u berasiz?”, deb so‘raydi. Javobim bitta: Kitob o‘qimagan inson – poydevori yo‘q binoga o‘xshaydi. O‘zgina murakkab sinov yoki hayotiy muammo qarshisida bunday “bino” tez fursatda qulab tushishi mumkin. Shunday ekan, mutolaa va ilmga intilish doimiy hamrohimiz bo‘lishi shart.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan ushbu tadbirning yuksak saviyada, zamonaviy mezonlar asosida va ko‘tarinki ruhda tashkil etilgan korxonada kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalasiga ustuvor vazifa sifatida e‘tibor berilayotganidan dalolat beradi. Ilm-ma‘rifatga qaratilgan bunday yuksak g‘amxo‘rlik uchun shaxsan o‘z nomimdan va “Zakovat” intellektual klubi jamoasi nomidan kombinat rahbariyatiga chin qalbdan minnatdorchilik bildiraman. Bunday xayriy tashabbuslar yurtimizning iqtisodiy qudratini mustahkamlashga xizmat qiladigan bilim kadrlarni kamol topirishda muhim omil bo‘lishiga ishonaman.



**Abdurasul Abdullayev, “Zakovat” intellektual klubi prezidenti:**

Xabaringiz bor, “Zakovat” intellektual o‘yini 2001-yilda tashkil topgan bo‘lsada, aynan Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qo‘llab-quvvatlashi natijasida u butun mamlakatni qamrab olgan ulkan intellektual harakatga aylandi.

Bu o‘yinlarda dunyoqarashi keng, zamonaviy fikrlaydigan farzandlarimizning faol ishtirok etayotgani bizni nihoyatda quvontiradi va kelajakka bo‘lgan ishonchimizni yanada mustahkamlaydi.

Bugungi vazifamiz – mazkur intellektual harakatni nafaqat shahar markazlarida, balki mamlakatimizning eng chekka hududlarida ham keng rivojlantirish hamda har bir tumanni chinakam “Intellektual hudud”ga aylantirishdan iborat. Zero, Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek, kitobxonlik madaniyati yuksak, mantiqiy fikrlaydigan va zakovatli avlodni hech qanday kuch yenga olmaydi.

Bugungi zamon bizdan nafaqat jismoniy mehnatni, balki yuksak aqlidrok va strategik fikrlashni talab qilmoqda. Shuni alohida ta‘kidlashni istardimki, O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi korxonada va tashkilotlar xodimlari, ayniqsa, yoshlarimiz nafaqat ishlab chiqarishning og‘ir konchilik sharoitlarida, balki ilm-ma‘rifat va yuksak tafakkur maydonida ham peshqadamlar safida ekanliklari bizni behad mamnun etdi. Musobaqa davomida har bir jamoa o‘z intellek-

**Shimoliy kon boshqarmasining “Alfa” jamoasi vakili Shukurullo Olimov:**

– Bahslarda barcha jamoalar bilim, tezkorlik va strategik fikrlashda o‘zlarining eng yaxshi jihatlari namoyish etga olishdi. Bu bellashuv bizga nafaqat bilimlarimizni sinash, balki kelgusida nimalarga ko‘proq e‘tibor berishimiz kerakligini ham ko‘rsatdi. Haqiqatda, musobaqa qizg‘in bellashuvlar ostida o‘tdi. Jamoalar kuchli bilimdonlardan tarkib topgani bois biz uchun ulkan muvaffaqiyatga erishish oson bo‘lgani yo‘q. Lekin o‘zimizga bo‘lgan yuksak ishonch tufayli faqat g‘alaba sari intildik va ko‘zlagan maqsadga erishdik. Natijada, bu yilgi musobaqada faxrli 1-o‘rin va kubokni qo‘lga kiritdik. Jamoamiz bilan Navoiy kon-metallurgiya kombinati sharaflini munosib himoya qilganimizdan xursandmiz. Bilimlar maydonida barchamiz nafaqat tajriba almashdik, balki yangi do‘stlar ortirdik. Har bir korxonada va tashkilotdan tashrif

buyurgan bilimdon yoshlarning ko‘zlaridagi shijoatni ko‘rib, yurtimiz kelajagi ishonchli qo‘llarda ekaniga yana bir bor amin bo‘ldik. Biz turli jamoalar vakillari bo‘lsak-da, maqsadimiz mush-tarak – intellektual salohiyatimiz bilan Yangi O‘zbekiston ravnaqiga hissa qo‘shish. Davlatimiz tomonidan yaratilgan bunday imkoniyatlar bizni doimiy izlanishga, kitob bilan do‘stlashishga va dunyoqarashimizni kengaytirishga undamoqda. Bu o‘z navbatida bizga mas‘uliyat yuklaydi.



**Navoiy mashinasozlik zavodining “Impuls” jamoasi sardori Feruz Nurmurodov:**

– Uchko‘g‘ini aytam, sohamizning eng zukko va bilimdonlari jam bo‘lgan kuchli jamoalar orasida faxrli o‘rinlardan birini egallash biz uchun katta sharaft va mas‘uliyat hamdir. Musobaqa savollari o‘ziga xos murakkab. Jamoamiz jipslashib, bilimni sinovdan o‘tkazishdi. Garchi bu gal shohsupaning uchinchi pog‘onasini egallagan bo‘lsak-da, biz buni navbatdagi yuksak g‘alabalar sari tashlangan ilk qadam, deb bilamiz. Bu bellashuv biz uchun haqiqiy mahorat maktabi bo‘ldi. Musobaqa davomida bilimlarimizni sinash bilan birga, jamoa bo‘lib ishlashni, bir-birimizni qo‘llab-quvvatlashni yanada chuqurroq angladik.

Bizga mana shunday imkoniyat yaratib bergan tashkilotchilarga rahmat aytamiz. Bu kabi tadbirlar bizni yangi marralar sari ruhlantiradi. Kelgusi musobaqalarda albatta bundan ham yuqori natijalarni qo‘lga kiritishga harakat qilamiz!



**Ulug‘bek Alimov, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ mis boyitish fabrikasi kasaba uyushmasi Qo‘mitasi raisi:**

– Prezidentimizning “Zakovat” intellektual o‘yini aholi o‘rtasida ommaviy-ma‘rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o‘yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bugungi kunda biz yoshlar uchun chinakam imkoniyatlar eleshini ochmoqda, hamda yoshlarning bilim va tajribalarini boyitish va mustahkamlashda dasturlamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur bellashuv yoshlarning o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon etishi, intellektual salohiyatini yangi bosqichga

ko‘tarishi uchun o‘ziga xos mahorat maktabi bo‘ldi. Mazkur musobaqada eng kuchli, bilim va g‘alabaga chanoq jamoalar ishtirok etayotganing o‘ziyoq bellashuvlar naqadar keskin va qizg‘in kechganidan dalolat beradi. Bunday yirik miqyosdagi tadbir Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi korxonada va tashkilotlar yoshlari o‘rtasida ikkinchi bor tashkil etilayotgani soha yoshlarini yagona maqsad yo‘lida birlashtirdi. Eng muhimi – bilimlar maydonida barchamiz tajriba almashdik. Bu, ertaga ishimizdagi muvaffaqiyatlarga ham zamin bo‘lishi shubhasiz.



**Davron Abdurahmonov, “O‘zbek-ko‘mir” AJ bosh direktorining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi:**

– Yangi marralarni zabt etishga qodir, bilim va izlanuvchan yoshlarni kamol topirish maqsadida tashkil etilgan “Zakovat” intellektual o‘yini hayotimizdagi yorqin voqeikka aylandi. Tadbirning yuksak saviyada va ko‘tarinki ruhda o‘tkazilganligi barchamizni madaniy dam olishimizga, dunyoqarashimizning yanada kengayishiga xizmat qildi. Ayniqsa, ushbu bilimlar bellashuvi doirasida “NKMK tarixi” muzeyiga uyushtirilgan sayohat taassurotlarimizni yanada boyitdi.

Muzey ostonasidan hatliarkanman, o‘zimni moziy sarhadlariga qadam qo‘ygandek his qildim. Bu yerda inson irodasi va zamonaviy ilm-fanning naqadar qudratli ekaniga guvoh bo‘lishingiz mumkin. O‘tmish va kelajakni bog‘lovchi bu maskan misli bir xazina. Muzeyda turli eksponatlar bilan yaqindan tanishdik. Ayniqsa, arxeologik topilmalar va tog‘ jinslari namunalari insonni hayratga soladi. Millionlab yillar oldin mavjud bo‘lgan o‘rdakburun dinozavrning boldir suyagini o‘z ko‘zim bilan ko‘rish – tabiatning naqadar sirli ekanini anglatadi. Qizilqum sahrosi bir paytlar ulkan jonzorlar makoni bo‘lganini tasavvur qilishning o‘zi hayajonli. Bizni eng ko‘p qiziqtirgan jihatlardan biri Qizilqumdagi qadimgi konlar xaritasi va ibtidoiy mehnat qurollari bo‘ldi. Ajdodlarimizning hali texnologiya rivojlanmagan davrlarda-yoq metallurgiya va konchilik sirlarini egallagan, murakkab ro‘zg‘or buyumlarini yasagan ularning naqadar yuksak madaniyatga ega bo‘lganidan dalolat beradi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarixi va rivojlanish bosqichlariga doir noyob ko‘rgazmalar barchamizda katta taassurot qoldirdi. Eng qiziqarlisi, dunyoga mashhur “Muruntov” konining ulkan maketini ko‘rib hayratlandik. Bu yerda konning 750 metrlik chuqurligi va undagi ish jarayonini kaftdagidek ko‘rish mumkin. “Insonlar – asosiy boyligimiz!” degan tamoyil asosida tashkil etilgan burchaklar bu ulkan yutuqlar zamirida fidoyi ishchilar va O‘zbekiston Qahramonlarining mehnati yotganini anglatadi.

**Dildora KARIMOVA suhbatlashdi.**

## ■ Dolzarb mavzuda suhbat

# IZLANISH VA INTILISH

## ISHLAB CHIQRISH MUAMMOLARINI HAL ETISHNING ASOSIY SHARTIDIR

□ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Ko‘pgina tadqiqotlar natijasi o‘laroq, karbonli ma‘danlardan oltin ajratib olishning eng samarali yo‘li bu ionalmashinuvli qatronidan foydalangan holda, sorbsion sianlash uslubini hisoblanadi. Zavodimizda aynan shu uslubdan foydalanildi. Bo‘tanaga nisbatan faolroq bo‘lgan sun‘iy sorbentlarni kiritish ma‘dandagi tabiiy karbonli moddalar bilan raqobat muhitini keltirib chiqaradi. Bu esa oltinni sorbsion eritmaga o‘tkazish darajasini keskin pasayishiga olib keladi. Ayni paytda mutaxassislar yangidan-yangi boyitish yo‘llari ustida tinimsiz izlanish olib borib ayrim uslublar ishlab chiqarishga joriy qilinayapti. Masalan, “NKMK” AJ mutaxassislari R.Romanov, U.Sharafiddinov va U.Bazarov hamkorlikda o‘tkazgan tadqiqotlariga asoslanib, qiyin qayta ishlanuvchi ma‘danlarni sianlashda oltinni yo‘qotish darajasini kamaytirish uchun kerosin, mazut, neft, skipidar, mineral moylar, bo‘yoqlar kabi organik reagentlardan foydalanish kabi ko‘plab usullar o‘zini oqlashini isbotlab berishdi. Jumladan, 2-GMZ mutaxassislari oksidli va qiyin qayta ishlanadigan shixtalar uchun kerosin va ilk bora lingosulfanat natriy

eritmasidan keng foydalanishmoqda. Bunday tashqari, zavodimiz mutaxassislari ma‘dan tarkibini oldindan o‘rganish, konsentratsiyani kamaytirish maqsadida laboratoriya tahlillariga sarflanadigan vaqtdan yutish, ya‘ni operativ samaradorlik, shuningdek, qo‘shimcha kompressor qurilmalarini ishga tushirish va boshqa yo‘llar ustida tadqiqotlar olib borishyapti.

Ma‘danlar kimyoviy tarkibining o‘zgarishi, qiymatbaho metallar siyraklashuvi, minerallar ulashining ortishi yaqin kelajakda xomashyoni qayta ishlashda differensial yondashuvga o‘tishni muqarrar qilib qo‘ydi. Davr butun kombinatimiz faoliyatini samaradorligini oshirish uchun kombinatsiyalashgan texnologiyalarni rivojlantirish, ma‘danlarning muayyan turlari uchun ixoslashtirilgan obyektlar qurish hamda ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga faol joriy etishni talab etmoqda.

Zavodimiz jamoasi, malakali mutaxassislarimiz bor bilim va tajribalarini safarbar etib, qat‘iy izlanish va intilishlari bilan kombinatimiz oldida turgan bunday dolzarb vazifalarni bajarishga munosib hissa qo‘shadilar.

**Suhbatni Sitara RAXIMOVA yozib oldi.**

## ■ Mehnat jamoalarida

**Dono xalqimizning “Suv keltirgan elda aziz” degan hikmatli naqli bor. Zero, hamma davrlarda ham suvni dalalar bag‘riga, odamlarning ehtiyoji uchun etkazib berish oson kechmagan. Yurt obodligi, dasturxonimiz to‘kin-sochinligi manbai bo‘lgan suvdan tejab foydalanish hamisha katta ahamiyat kasb etgan. Mo‘l-ko‘l hosil olish uchun suv qanchalik zarur bo‘lsa, sanoat uchun ham uning qadri zardan qimmat.**

# SUV TEJAMKORLIGI YO‘LIDA

Sanoat tarmoqlarida, ayniqsa, metallurgiyada suv nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini ta‘minlash, balki salomatlik va ekologik xavfsizlikni saqlashning ham muhim vositasidir.

Shimoliy kon boshqarmasi korxonalarining suvga ehtiyojini Amudaryo va yer osti suvdan olinadigan Beshbuloq suv inshooti ta‘minlab beradi. Suvdan tejamlorlik bilan va qayta ishlash usullari orqali foydalanish korxonada uchun ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Cho‘lda suvning qadri bo‘lakcha. Bejjizga bu yerning joy nomlari suv bilan bog‘langan holda atalmaydi. Bu loq, quduq... Yaratgan odamzodga rizq ulashar ekan, yo yerining ostidan, yoki osmonidan obi-hayotini bekamu ko‘st beradi. Bir qarangiz, cho‘li biyobonda saksuvoldan boshqa hech narsa o‘smaydi, odamzod yasholmaydigandek. Ammo inson aql-idroki bilan bu yerlarni jannatga aylantirishmoqda. O‘tgan asrning 30-yillarida Markaziy Qizilqum cho‘lining Tubelek artezian havzasida joylashgan Beshbuloqda gidrogeologik tadqiqotlar olib borilgan. Yer osti suvlarining zaxiralarini topish cho‘lda nafaqat chorvachilik, balki sanoatning ham rivojlanishiga olib keldi. 1961-yilning bahorida Uchquduq sanoat zonasini texnik suv bilan ta‘minlash va aholi yashash punktlarini ko‘kalamlashtirish maqsadida, “Beshbuloq” nasos stansiyasi barpo etilib, 3 ta yer osti qudug‘i va 2 ta nasos ishga tushirib, soatiga 200 kubometr texnik suv olindi. Bu, Uchquduqda minglab odamlarning muqim yashashi uchun imkoniyat yaratdi. Avval uran ishlab chiqarganlar endi oltin olish hadisini egalladilar...

Uchquduqda tarkibida qiymatbaho metallar bo‘lgan ma‘danni qayta ishlash bilan bog‘liq texnologik jarayonlar bevosita shu yer qadindan olib chiqilayotgan suv yordamida amalga oshirildi. 3-gidrometallurgiya zavodida BIKOS sexi ishga tushirilishi tufayli 2013-yilda Beshbuloq suv havzasida yana 13 ta yer osti quduqlari qazish ishlari bajarilib, suvga bo‘lgan talab qondirildi. Oradan uch yil o‘tib suvdan samarali foydalanishning yangicha usuli topildi. “Beshbuloq” nasos stansiyasining quvvati oshirildi. Nasos stansiyasini GMZ bilan bog‘lovchi qariyb 20 kilometr uzunlikdagi sho‘r suvga chidamli suv quvuri yotqizildi. Hozirgi kunda nasos stansiyasidan Shimoliy kon boshqarmasi bo‘linalariga yiliga 8 million kubometrgacha suv keltirilmoqda.

Germaniyaning “Yevrowater” kompaniyasi tomonidan 2016-yilda qurilgan Tuzsizlantirish majmuasi “Beshbuloq” nasos stansiyasidan keladigan texnik

suvni maxsus filtrlar yordamida tuzsizlantirib bermoqda.

Kon boshqarmasi bosh energetik bo‘limi yetakchi muhandisi Jamol Mustafayev ta‘kidlashicha, Tuzsizlantirish majmuasiga keladigan suv 200 metr chuqurlikdagi yuqori mineralashgan yer osti suvidir. Majmuaga yiliga o‘rtacha 2,6 million kubometrdan ortiq tuzsizlantirilgan texnik suv ishlab chiqarmoqda. Gidrogeologik xulosalarga ko‘ra, bu yer osti sho‘r suvi 25 yillik zaxiraga ega.

Bugun zamonaviy sanoat korxonasi xarajatlarni optimallashtirish, mahsulot tannaxrini pasaytirish orqali jahon bozoriga chiqa oladi. 2024-2025-yillarda ShKBda “Beshbuloq” suv inshootlaridan 3-GMZga suv ta‘minoti” loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur loyiha asosida “Beshbuloq” va suvni yarim yuzaga ko‘tarish majmuasida qo‘shimcha 10 ta quduq 2 ta 8,9-nasos stansiyalari, suv saqlash rezervuarlari qurildi. Suvni 3-gidrometallurgiya zavodiga yetkazib berish uchun “Beshbuloq”dan bosimli zaxira suv omborlarigacha diametri 500 millimetrdan bo‘lgan 21 kilometr uzunlikdagi quvur yotqizildi.

– “NKMK” AJning 2025-yil energetika resurslarini tejash chora-tadbirlari rejasiga muvofiq, “Beshbuloq” nasos stansiyasidan zavodning texnologik jarayonlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqori mineralashgan yer osti suvlaridan foydalanishga o‘tildi, – deydi Isviqlik, suv, gaz ta‘minoti va oqavalari sexi boshlig‘i Otabek Berdiyev. – Bu, Amudaryodan olinadigan suv sarfini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi. 2024-yilga nisbatan qo‘shimcha 1 million 804 427 kubometr texnik suv ishlab chiqarildi va xuddi shu hajmdagi Amudaryo suvi tejalidi. Ushbu chora-tadbirlar hisbidan korxonamiz 13 milliard so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishdi.

Nasos stansiyasida bajarilgan umumiy qiymati 150 milliard so‘m liyoha natijasida suv olish quvvati soatiga 1300 kubometrgacha oshdi.

Ma‘lumki, mamlakatimiz ehtiyoji uchun sarflanadigan suvning 80 foizi qo‘shni respublikalar hududidagi tog‘larda shakllanadi. Iqlim o‘zgarishi, tog‘lardagi ko‘p yillik muzlarning erib borishi hisobiga suv zaxiralari kamayib bormoqda. Ana shunday sharoitda eng avvalo, suvdan samarali foydalanish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni kengaytirish hisobidagina muammoni oldini olish mumkin bo‘ladi. Sanoat ham suvsiz rivojlanmas ekan, suvning bir tomchisini ham isrof qilmasligimiz shart.

**Laylo KARIMOVA.**

■ Amir Temur tavalludining 690 yilligiga

# Sohibqironni anglash — o'zlikni anglash



Davomi. Boshlanishi o'tgan sonda.

## “MING BIR KECHA” ERTAKLARIDEK

Bundan ko'p yillar burun, sobiq sho'ro tuzumi davrida Shahrisabz avtovokzalining kutish zalida kattakon, ajoyib surat osig'liq turardi. Suratda Sohibqiron Oqsaroyda xorijlik elchilarni qabul qilayotgani tasvirlangan. Moviy gumbazlar o'tibda charaqlab, marmar hovuzda zilol suv yengil mavjlanmoqda. Hukmdor atrofiga bir qancha salobatli zotlar turishibdi. Zarbof to'nlari, qimmatbaho kamarlari tik gavdalariga juda yarashgan bu qudratli insonlar Sohibqironning safdoshlari, arkoni davlat, vazirlar va amirlaridir. Suratda saltanatning boyligi, kuch-qudrati, mustahkam intizom aks etgan, u darhol e'tiborni tortadi.

Amir Temur saltanatida o'tkazilgan mashvarat, qurultoy, kengash, shohona qabullar va dabbabali saroy marosimlarida o'rta asr davlatchiligining o'ziga xos rasmiy an'analari mujassam aks etadi. Sohibqiron Turkiston tuprog'ida ungacha hukm surgan davlatchilik sulolalari, xususan, Xorazmshohlar saroyi hamda chingiziyalar o'rdisidagi shohona qabul tartiblarini, tantanavor marosim va urf-odatlarini qabul qilib, o'z saroyida yanada taraqqiy ettirgan. Jumladan, qabul tartiblarining ijobiy jihatlari uyg'unlashtirgan va yangiliklar kiritgan.

“Temur tuzuklari”da shunday darj etilgan: “Amr qildimki, sipohiyalar, amirlar, mingboshilar, yuzboshilar va o'nboshilar devonxonaga, bazm-majlislariga kulohsiz, etkisiz, kavushsiz, bo'rk yoqalik chakmonsiz, xanjarsiz, qilichsiz hozir bo'lmasinlar”. Jahongir Sohibqironning qabul marosimlaridagi ulug'vor va hashamatli manzaralar oldida bir necha asr keyin Farangiston qasrlarida jori bo'lgan dabbabalar xira tortib qolsa, ajab emas. “Amir Temurning poytaxti va saroylarining hashamati ajnabi hukmdorlar va elchilarni maftun etgan. Sohibqiron ularni kiyim-boshi, qurol-yarog'i, serma'no nutqi bilan lol qoldirdi. U oq suvsar mo'ynasidan tikilgan, javohirlar bilan bezatilgan telpak kiyib yurar, saila o'ramagan edi”. Sharq tillari va adabiyoti bilimdoni, Pesht dorilfununi professori, XIX asrda yurtimiz bo'ylab sayohat qilgan Herman Vamberi Amir Temur saroyi manzaralarini tarixiy manbalar asosida quyidagicha maroq bilan ta'riflagan:

“Saroy xonimlari oltin uqa bilan bezatilgan uzun qizil kiyim (qabo) kiyar edilar. U kiyimning yoqasi bo'ynini qisib turadigan, o'zi yengisiz bo'lgan, orqa etagi juda uzunligi uchun uni maxsus joriyalar ko'tarib yurishgan. Ularning soni ba'zan o'n besh kishiga yetardi. Yuzga hijob tutganlar. Safarda chang-to'zondan va havoning ta'siridan saqlanish uchun yuzlariga oq qo'rg'oshin tusidagi upa qo'yilgan. Qizil movuttan dubulg'aga o'xshash uchli qalpoq kiyishgan. Qalpoq usti qizil yoqut, zabarjad, durlar bilan bezatilgan, atrofiga kungurador bezak (qosh) bo'lib, undan go'yo oq parlar o'to'kilib turgan. Patlar ayollarning ko'zlariga tashib, harakati bilan o'zgacha go'zallik berur edi.

Sohibqiron saroyidagi ayollar Osiyoning qimmatbaho taqinchoqlari-yu, Isfahon, Mo'ltan, Ganja, Damashq, Bursa, Venetsiya zargarlarining nafis asarlari bilan o'zlariga oru berar, erkaklar ham noyob toshlar bilan bezatilgan qurol-anjom va kamarlarini ko'rsatib, ko'zni qamashtirar edilar. Ertaklardagidek ko'p boylik — kumush va oltin idish-tovoqlar ham saroylarda tez-tez ko'zga tashlanib turar edi... Bu yerda qiziqchilar, muqallidlar, ko'zboylag'ichlar, dorbozlar deyarli kam edi. Bularning ko'pchiligi Hindistondan, Kashmirdan kelar edilar. Mazkur to'ylarda xonimlar hijobsiz ishtirok etardilar, malikalar izn ommaga ruxsat etilgan) bazmlari yasas, unda erkaklar, hattoki nasroniy elchi ham qatnashar edi. Islom va O'rta Osi-

yo turmushi bilan tanish kishilarga bu g'ayritabiiy tuyuladi. Ispaniya elchilarining rivoyatlariga ko'ra, biz Mironshohning xotini katta mehmonlar yig'ili-shida bergan bir umumiy ziyofatni bilamiz. U qirg' yoshlik semiz bir xonzoda edi. Bu ziyofatda yosh yigitlar va katta bahodirlar soqiy bo'lib xizmat qildilar. Boshqa bir paytda podshoh oyim, ya'ni Temurning katta xotini movut devorlar bilan o'ralgan, oltin naqshlar va yozuvlar bilan ziynatlangan oliy chodirda katta to'y qildi”.

Klavixo ulkan shohona chodir va uning ichida ko'rganlarini shunchalik hayrat va zavq bilan tasvirlaydiki, ularni “Ming bir kecha ertaklaridagidek” deb ta'riflasak, ancha kamtarona baho bergan bo'larmiz. Negaki, bu tantanalar haqida ko'pni ko'rgan muarrixlar yozib qoldirgan nodir so'zlarni tarix bisotida boshqa uchratish mushkul. Balandligi rosmana qasrga deyarli teng keladigan shohona chodirni odam belgi yo'g'ong'idagi o'n ikkita oltin ustun ko'tarib turgan. Har joyda qimmatbaho gilamlar cho'g'dek yonib, noyob shohi so'znanalar betakror manzara hosil qilgan. Chodir peshtoqi-da zarhal rangda tushirilgan ajdarho tasviri shaholda ohista sollarib, uzoqlardan yaqqol ko'rinish turardi. Ichkaridagi oltin xontaxta, oltin ko'za va qadahlar, ayniqsa, tanasining yo'g'ong'ligi odam sonidek keladigan oltin daraxt kishini ertaklar saltanatiga yetaklagandek bo'ladi.

Sohibqiron 1404 yil iyulida Yetti yillik harbiy safardan qaytib keldi. Muayyan vaqt Samarqand atrofidagi “Bog'i Chino'r”, “Bog'i Dilkusho” va “Bog'i shamol”da yashab, navbatini bilan Oltin O'rda va Ispaniya elchilarini qabul qildi. Ayni paytda Samarqandda o'zi yo'qligida davlat ishlari qanday olib borilganligini sinchkovlik bilan tekshirib, yo'l qo'yilgan adolatsizlik va tartibsizliklar uchun ma'muriyat vakillarini jazolagan. “Temur — deb yozadi Ibn Arabshoh — o'zi yo'qligida mamlakati va raiyasi ishlarida nalar yuz berganini surishtirib, yer-u mulklari masalalarini diqqat bilan o'rganib boshladi va hokimlarga yo'l-yo'riqlar ko'rsatdi; atrof va chegaralar, tevarak-chetlar foydasi tadbirini ko'rib, katta-yu kichikning g'amini yeb, boyu faqirlarning manfaati bilan mashg'ul bo'ldi”.

Sohibqiron o'zi yo'qligida mansabdorlarning aybi bilan jamoa ahlini ranjitanligini hisobga olib, kayfiyatini ko'tarish maqsadida xalq bayramini o'tkazish va shu bilan birga nevaralarini uylantirish haqida ko'rsatma beradi. Bu xususida yana Ibn Arabshohning hikoyasiga quloq tutamiz:

“Temur Samarqand ahliga zeb-ziyatga o'rallishni, ular ustidan jabru sitamlarni ko'tarib, so'liq va to'lovlardan ozod qilishni, ularga omonlik bisotini yozishni, aholidan katta-yu kichik, yuqori va quyi tabaqali kishilarga fazlu ehson bilan muomala qilishni, o'z yerlarida qilich yalovg'ochlarni, zulm va nohaqlik qilmasliklarini, o'z zebu ziynatlarini bilan Samarqand etagidan bir milda joylashgan Konigil deb ataladigan joyga chiqishlarini amr qildi. U joyning havosi mushkdan ham sof, suvi qanddan ham shirin bo'lib, go'yo bu joylar jannat bo'stonidan ajratib olingan bir qit'a”.

Bu hayratomuz satrlarda inson qadr-qimmatining ulug'ligi, podshoh odilligi, muqaddas Vatan tuprog'ining bebaholigi, mo'l-ko'chilik, osoyishtalik, to'g'chilik, tani sihatlik va ko'ngil xotirjamligi o'yoatda go'zal tarzda aks etgan.

Shundan so'ng muarrix, shaxsan Sohibqiron bosh-qosh bo'lgan xalq bayrami va to'yni maroq bilan tasvirlaydiki, u o'quvchiga o'zgacha zavq, hayrat, quvonch, huzur-halovat, faxr va g'urur bag'ishlaydi.

“Konigilda minglab chodir va o'tovlar tikilib, oltin, kumush, nodir javohirlar bilan bezatildi. Oltindan yasalgan idish-tovoqlar qo'yilib, anvoyi taomlar pishirildi. Bayram va to'ya Sohibqironning farzandlari, xotinlari, kelinlari, qarindoshlar, saltanatning boshqa viloyatlaridan kelgan hokimlar, shuningdek, o'nboshilar, yuzboshilar, mingboshilar, tumanbegilar, amirlar va harbiy qismlar o'zlariga belgilangan joylarga o'mashdilar. E'tiborli tomoni shuki, tumonot odam — o'n minglab askarlar va fuqarolar hech bir ortiqcha shovqin-suron va besaranjomlik, tez, aniq harakat qilib, ulkan yalanglikda xuddi ertaklardagi kabi g'aroyib ko'chma shahar bunyod etishdi. Qandaydir ash-yolar yetishmasligi, ta'minotda kechikish, o'g'irlik, o'rsinsiz shovqin, do'q-po'pisa, qistovga olish kabi

holatlar yuz bermagan. Har kim o'z o'rni va vazifasini aniq bilgan hamda benuqson bajarar edi.”

Bu satrlar Sohibqironga muxlis muarrix tomonidan emas, balki unga nisbatan ko'nglida gina-kudurat saqlagan sobiq asir — Ibn Arabshoh tomonidan bitilgan ham e'tiborga loyiq. Ya'ni, Sohibqiron dargohida yetti iqlimda bo'lmagan ulug'vor manzaralarni ko'rib, shaxsiy g'arazni chetga surgan, uning dahosiga samimiy tan bergan. Shu bois, voqealar xolis yoritilganiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Sohibqiron saroyidagi ulug'vor tantanalar, poytaxt Samarqand va boshqa shaharlarda o'tkazilgan to'y manzaralarni dunyo tarixidagi unchamuncha tantanalar bilan solishtirib bo'lmaydi.

Ibn Arabshoh Konigildagi bayramlarni tasvirlashni davom ettirib yozadi: “Shunday qilib, osoyishtaligun xotirjamlik, farog'atu to'kinchilik, narx-navo arzonligi, orzu-havas ushalishi, zamon mo'tadilligi, sulton odilligi, tani-badan sihatligi, vaqti chog'lik, nafratning ko'tarilishi, matlubga yetishish, mahbubaga visollik hosil bo'ldi. Ushbu to'y tantanasida Temurga savlatlilik va ulug'vorlik, hashamat va dabbabalikdan (shunday) bir (ulug') narsa muyassar bo'ldiki, o'ylaymanki, qadarlik narsa qadim o'tgan xalifalardan hech biriga nasib etmagan va (bundan) keyin keladiganlarning ham birortasiga nasib bo'lmaydi”.

Ushbu ertakmondan tasvirlarni xotirada jonlantirib, o'zingizni o'sha bayram qatnashchisi sifatida tasavvur qiling. Mana, o'sha tarixiy Konigil o'lanzori — Samarqand yonidagi Cho'ponota adirlarining etagi, Zarafshonning chap qirg'og'ida yastanib yotibdi. Bu tuproq bir zamonlar xuddi ertaklardagidek to'y-tantanalar g'uvoh bo'lgan. Klavixo, o'sha mashhur to'y kunlari Konigil yalangligida 20 ming chodir tikilgan edi, deb yozgan. Yigirma ming-a! Buncha hashamat va ko'lamni ko'z ilg'aydimi, kishi nigohi qamray oladimi?!

Amir Temur o'tkazgan ulkan to'ylar, qurdirgan shaharlar va hashamatli qasrlarning ta'rifu tavsifini necha-necha jild kitoblar yozib ham tugatib bo'lmaydi. Bu shodiyonlarning shukhi xalq xotirasida bardavom yashab kelayotir. Bugungi Qarshi, Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi, Samarqand va boshqa joylardagi katta to'ylar, beixtiyor Sohibqiron bobomiz Dilkusho bog'ida o'tkazgan qabul marosimlari, Konigil dashtidagi to'y-tantanalarni esga soladi. Oddiygina odamlarning ham dabbabali to'ylarida butun davlatiyu savlatini namoyish etishi, necha yillab yiqqan-terganini favqulodda saxiylik bilan xalqqa sochish odati bizning yurtidan boshqa yana qayda bor? Ulug' Sohibqironning hafatalar to'ylar bergani, so'ng'ra har bir mehmonga bittadan hisori qo'y sov'ga qilgan haqidagi rivoyatni eslatadi bu hometoylik.

Shuningdek, imoratlarini imkon qadar serjilo va hashamatli qilib qurish odatimiz ham bizga bobomeros qadriyat, deiysh mumkin...

Sohibqiron o'sha bayram va to'y oxirida xaloyiqqa qarata shunday degan ekan:

“Tengi yo'q Tangri va rang-barang olamning egasi rub'i maskundagi mamlakatlarning ixtiyor jilovini bizning qudrat changalimizga tutqazgan hamda jahonning quruqligiyu suvlaridagi barcha maxluqotni bizning amrimizga bo'syundirgan ekan, olamni yorituvchi o'tob misoli, uzoq va yaqinni bir xil qilib, barcha davlatlar va millatlar-dan kuchli va zaif, faqir va sharif, katta va kichik hammasini o'z marhamatimiz himoyasi va shafqatimiz soyasida bir xil ko'rishni, har bir kishini o'z mavqeiga qarab bu buyuk davlat mahsulidan bahramand etishimizni shart qilib qo'yimish. Sizlar ham har doim berilgan ne'matlarga shukr qilsangizlar, albatta ularni ziyoda qilurman.”

Bobokaloning ushbu so'zlari insonparvarlik, millati va dinidan qat'iy nazar barcha xalqlarning teng huquqligi va ularning “davlatdan bahramand” bo'lishlarini aks ettiruvchi olijanob tuyg'ular bilan so'g'irilgan. Turli din va millat vakillariga bunday adolati munosabatda bo'lish tarixda deyarli uchramaydi.

Davomi kelgusi sonlarda.

Baxtiyor HAYDAROV,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

■ Dolzarb mavzu

## KORRUPSIYA — JAMIYAT TARAQQIYOTI KUSHANDASI

Yangi O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Targ'ibot va profilaktik tadbirlar jamiyat taraqqiyotining kushandasi bo'lgan bu illatning qanchalik og'ir oqibatlarga olib kelishi, qonun ustuvorligi, jazo muqarrarligi keng tushuntirilmoqda.

Ma'lumki, korrupsiya, bu — mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat turi hisoblanadi. Shu bilan birga, korrupsion faoliyat xufyona iqtisodiyotning asosiy turlaridan biridir. Ko'p hollarda korrupsiya deganda davlat xizmatchilari tomonidan shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qilingan xatti-harakatlar tushuniladi. Oddiy fuqarolar ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari bo'lishi mumkin. Unutmashlik kerakki, bu jinoyatlar bo'yicha qonunchiligimizda qat'iy jazo choralari belgilab qo'yilgan.

Davlatimiz rahbarining e'tibori va tashabbusi bilan bu illatga qarshi kurashish bo'yicha muhim qonunlar qabul qilingani, Parlament palatalarida qo'mitalar, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va agentligi tashkil etilganligi natijasida yur-timzda korrupsiyaga qarshi kurashish ta'siri yildan-yilga ortib bormoqda. Keyingi yillarda barcha idoralarda kompaniyas va korrupsiyaga qarshi ichki nazoratga mas'ul o'rinsosar lavozimi joriy etilgani, Hisob palatasining vakili faoliyati yo'lga qo'yilgani, kompaniyas xizmatlari tashkil etilishi bu jinoyatlarni barvaqt aniqlash va oldini olishga xizmat qilmoqda.

Muhtaram Yurtboshimizning “Korrupsiya — davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid. Korrupsiyaga yo'l qo'yish esa islohotlarimizga xiyonatdir! Bu illatga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda “favqulodda holat” e'lon qilamiz”, — degan da'vati biz, shaka vakillari mas'uliyatini yanada oshirib yubordi.

Bu borada Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan va aniq chora-tadbirlar belgilab olingan. Natijada, jamoatchilik uchun xalqchil, ochiq va shaffof tizim yaratildi. Buning dastlabki e'tirofi sifatida o'tgan yili O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan ochiqlikni ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarining samaradorligi va natijadorligi hamda Ochiqlik indeksi natijalari bo'yicha kombinatimiz 89,2 ball bilan 4-o'ringa sazovor bo'lganligini misol keltirish mumkin.

Shuningdek, “NKMK” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkil etilgan boshqaruv tizimi va mexanizmlar “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi” ISO 37001:2016 xalqaro standart talablariga muvofiqi “CERT International” tashkiloti tomonidan tashqi auditdan o'tkazilib, kombinatga xalqaro standart sertifikat berilgani katta yutuqlardan biridir.

Joriy yilda ham kompaniyas xizmati barcha xodimlari korrupsiyaga qarshi kurash targ'iboti, zimmamizga yuklangan vazifalarni bajarishga to-

la jalb etilgan. Yil boshidan buyon bo'linmalarda korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan 15 ta ana shunday tadbirlar amalga oshirildi va tadbir ishtirokchilari, qolaversa, korxonada mehnat qilayotgan ishchi-xodimlarga turli targ'ibot hamda tarqatma materiallar yetkazildi. Bir guruh xodimlarning malakasi oshirildi, shuningdek, ichki idoraviy hujjatlar ekspertzidan o'tkazildi.

Xaridlar sohasida “Tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo'yicha” komissiya tomonidan 2 ta tender hujjatlari bo'yicha tovar yetkazib beruvchilar hujjatlari ko'rib chiqilib, qonuniylik ta'minlandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga ko'ra, 2025-yil yakuni bo'yicha 29 turdagi ma'lumot va hisobotning “E-Anticor.uz” elektron platformasiga kiritildi.

Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash sohasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni ijrosi yuzasidan tegishli ma'lumotlar belgilangan muddatlarda Jamiyatning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi ta'minlanmoqda.

Jamiyatning www.nkmk.uz rasmiy veb-saytida hamda ichki portalda (jamiyat xodimlari uchun) joriy etilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish” va “Ochiq ma'lumotlar” bo'limlarida ichki idoraviy hujjatlar, ochiq e'lon qilinishi belgilangan ma'lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli aloqa kanallari, ijtimoiy videoroliklar hamda Xizmatning mas'ul xodimlari to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirildi hamda ushbu ma'lumotlar doimiy tarzda yangilab borilishi nazoratga olindi. Jamiyatning 2024-yil 9-fevraldagi tegishli buyrug'i bilan tasdiqlangan “NKMK” AJning faoliyatiga oid ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar rasmiy veb-saytda e'lon qilinishi ta'minlandi.

Bundan tashqari, Jamiyat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, ularning jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari va korxon ishchi-xodimlari ishtirokida 2026-yilning 17-fevral kuni “NKMK” AJ Markaziy apparati binosida brifing o'tkazildi. Bir so'z bilan aytadigan, oldimizda ulkan vazifa va mas'uliyat turibdi. Bu ishlarni so'zsiz, o'z vaqtida, sifatlil amalga oshirish uchun kuch-g'ayrat, tajribamizni to'la safarbar etamiz.

Azamat BOZOROV,  
“NKMK” AJ Kompiyans xizmati sho'ba boshlig'i.

■ Xabarlar

## DOLZARB MAVZU MUHOKAMA ETILDI

Janubiy kon boshqarmasida “Bo'linmalarda mehnatni muhofaza qilish qoidalariga qat'iy amal qilishni ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish va baxtsiz hodisalarning barvaqt oldini olishga qaratilgan ishlar samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar” mavzusida seminar o'tkazildi. Tadbirda kon boshliqlari, bosh muhandislari va o'rinsosarlari, uchastka va sex boshliqlari hamda o'rinsosarlari, kon ustalaridan iborat 120 nafar ishtirokchi qatnashdi.

Navoiy ixtisoslashtirilgan prokuraturasi prokurori, adilya maslahatchisi N.Tilavov, Navoiy viloyati IIB NKMK IIB boshlig'i A.Ro'ziyev, Qizilqum kon-texnika inspeksiyasi boshlig'i A.Abdusattorov, “NKMK” AJ Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bosh boshqarmasi boshlig'i A.Tursunov va Janubiy kon boshqarmasi direktori T.Yuldashyevlar kun tartibidagi mavzuda chiqish qilishdi.

Janubiy kon boshqarmasi direktori Tolliboy Yuldashyev shunday dedi:

“Ishlab chiqarish jarayonida mehnat muhofa-

zasi va xavfsizlik texnikasiga rioya etish — muhim talablardan biridir. Ayniqsa, yerosti konlarda bunga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Seminarda bu borada bajarilishi lozim bo'lgan birinchi darajali vazifalar bu ishga mas'ul va javobgar ishtirokchilarga ko'rgazmali taqdimotlar orqali batafsil tushuntirib berildi”.

Seminar yakunida o'zaro fikr almashilib, kelgusida hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

Mansur HUSANOV.

## MAXSUS-TAKTIK O'QUV MASHG'ULOTI BO'LIB O'TDI

“Marjonbuloq” koni oltin ajratish sexiga qarashli chiqindi saqlash omborida maxsus-taktik o'quv mashg'uloti bo'lib o'tdi. Unda kombinat tarkibiy bo'linmalaridan taklif etilgan rahbar xodimlar, mutaxassislar ishtirok etdi. Tadbir oldidan mavzu yuzasidan keng tushuntirish berildi.

“NKMK” AJ Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i Farhod Shodmonov shunday dedi:

“Bu mashg'ulotni o'tkazishdan asosiy maqsad — Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarkibiy bo'linmalari rahbar va ishchi-xodimlari hamda fuqaro muhofazasi tuzilmalarining tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda harakat qilishi, shuningdek, ularning oqibatlarini bartaraf etishga tayyor-garlik darajasini baholashdan iboratdir. Bunday

tadbirlar rejali tarzda muntazam o'tkazilishi, albatta, ishchi-xodimlarning ko'nikma va bilimlari, mavzuga doir taassurotlarini oshiradi. Mashg'ulot yakunida tayyorgarlik darajasi ijobiy baholandi hamda mas'ullar tomonidan kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi”.

Tadbir ko'rgazmali chiqishlar va ishtirokchilar faolligida o'tdi.

Zafar OLIMOV.

■ Madaniyat

# Qalblarga olam-olam shodlik ulashib...

Navoiy kon-metallurgiya kombinati ma'muriyati va kasaba uyushmasi Kengashi hamkorlikda ishchi-xodimlar, ularning oila a'zolari uchun doimiy ravishda taniqli san'atkorlar, teatr jamoalarini taklif etgan holda madaniy tadbirlar, konsertlar, teatr tomoshalarini uyushtirib kelmoqda.



Yaqinda "Farhod" madaniyat saroyida Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali teatrlarining taniqli san'atkor va aktyorlari ishtirokida "Kulgu va shodlik kechasi" nomli teatrlashtirilgan tomoshasi bo'lib o'tdi. O'zbekiston xalq artisti Odina G'ozieva, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artistlar Turg'un Beknazarov, Mehmonali Salimov, Gulchehra Nosirova, Azim Mullaxonov, "Do'stlik" ordeni sohibi Ma'suda Otajonova kabi el suygan aktyorlarning chiqishlari barchani mamnun etdi. O'zbekiston xalq artisti Odina G'ozieva o'z taassurotlarini shunday so'zlab berdi: "Navro'z umumxalq bayrami shukhi

kezayotgan shu kunlarda teatr jamoamiz bilan birgalikda zahmatkash konchilar huzurida teatr tomoshasini tashkil etdik. Mana shunday tomoshalar, konsertlar uyushtirib, turli mehnat jamoalari, hududlarda ko'p bo'lganmiz. Hamma gap tashkilotchilikka bog'liq. Bugungi tashkilotchilarga tasanno aytish mumkin. San'atsevar muxlislarini jalb etib, jamoamizga muhtasham madaniyat saroyida biz kutgandan ham ziyoda barcha shart-sharoitlarni yaratib berishdi. Tomoshabinlar orasida muxlislarimiz

ko'pligi, madaniyat saroyi uzra yangiragan olqishlar bizni yanada ruhlantirib yubordi. Bizning taklifimizni qo'llab-quvvatlagani uchun kombinat rahbariyati va kasaba uyushmasi Kengashiga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz!" Respublikamizning yetakchi teatr jamoasi tomonidan namoyish etilgan "Kulgu va shodlik kechasi" tomoshasi barchaga ko'tarinki kayfiyat va madaniy hordiq bag'ishladi.

Dildora KARIMOVA.



■ 7 aprelya - Vseмирный день здоровья

Vseмирный день здоровья отмечается с 1950 года, целью которой является привлечение внимания общественности к актуальным проблемам здравоохранения. В связи чем, мы хотим рассказать о профилактике туберкулеза, являющимся одним из наиболее серьезных вызовов для человечества, унёсшим миллионы жизней и оказавшим влияние на историю медицины.

## ТУБЕРКУЛЕЗНАЯ ИНФЕКЦИЯ, ЧТО НОВОГО?

Туберкулёз предотвратим и излечим. Чем раньше диагностируют заболевание, тем эффективнее будет лечение. Современные методы диагностики туберкулеза направлены на быстрое выявление ДНК бактерий и устойчивости к лекарствам. Ключевые инновации включают молекулярные тесты по крови. Эти методы позволяют поставить диагноз за часы, а не недели. В настоящее время и работники НГМК имеют доступ к основному новому и современному методу диагностики туберкулеза: молекулярно-генетические тесты – ВОЗ одобрила этот метод как революционный, он находит ДНК микробактерий в мокроте с высокой точностью, линейные зонды позволяют быстро определить устойчивость к основным противотуберкулезным препаратам, иммунологические наиболее точные тесты на латентный и активный туберкулёз. Развитию заболевания способствуют несколько факторов: эпидемиологический – нахождение по месту жительства больного туберкулёзом, который выделяет микобактерии и увеличивает риск заражения туберкулёзом в 6–10 раз; факторы возраста и пола – наиболее восприимчивыми к туберкулёзной инфекции являются дети в возрасте до двух лет и мужчины чаще болеют туберкулёзом, чем женщины, медицинские факторы – снижение защитных свойств иммунной системы на фоне хронических инфекций, хроничес-

ких респираторных заболеваний, сахарного диабета, язвы желудка, ВИЧ; социальные факторы – жизнь в неудовлетворительных бытовых условиях, пыльных и непроветриваемых помещениях, нарушение режима питания, отдыха, курение, алкоголизм, наркомания. Заболевание туберкулёзом, приводит к появлению у пациента симптомов – длительный кашель более 2 недель, боль в грудной клетке, слабость, повышенная утомляемость, снижение массы тела, субфебрильная лихорадка, ночная потливость. Они могут оставаться умеренными в течение многих месяцев, что может привести к позднему обращению за медицинской помощью и созданию условий распространению инфекции. Если возникают вышеперечисленные симптомы, следует обратиться в поликлинику, где специалист проведет обследование и обязательно найдет причину. Проще предупредить заболевание, чем лечить, а именно соблюдение режима труда и отдыха, отказ от курения, ограничение приема алкоголя, закаливание, рациональное и полноценное питание, занятия физкультурой и спортом, частое проветривание помещения могут оградить от болезни. Туберкулёз излечим. Будьте здоровы.

Эльмира МАМУТОВА,  
фтизиатр МСО.

■ "101" xabar qiladi

## O'LOV OFATIDAN O'ZINGIZNI ASRANG

Inson olovni ixtiro etgandan boshlab, uni o'z izniga bo'sundirishga intilib, undan ehtiyojlari uchun foydalanish yo'llarini izlab kelmoqda. Insonning ijtimoiy – siyosiy ongi rivojlanishi bilan olovdan foydalanishning usullari ham takomillasha bordi. Olovdan to'g'ri, maqsadli foydalanilsa, u insonning turmush tarzini yaxshilash, sog'ligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yong'in fuqarolarning hayotiga, sog'ligiga, davlat hamda jamiyat manfaatlariga ziyon va moddiy zarar yetkazuvchi nazoratsiz yonishdir. Yong'indan kelib chiqadigan moddiy zarar har qanday davlatning iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan dunyodagi barcha davlatlar yong'inga qarshi kurashish yuzasidan o'z qonun-qoidalarini ishlab chiqqan. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan aholi yashash joylari, korxonalar va tashkilotlarda, jamoat joylarida yong'in xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bir qator qarorlar qabul qilingan. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi yong'in xavfsizligi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida "Yong'in xavfsizligini ta'minlash davlat miqyosidagi asosiy vazifa deb, yong'in xavfsizligini ta'minlamaslik davlatning strategik qiziqishiga putur yetkazuvchi iqtisodiyot xavfsizligini ta'minlamaslik sifatida ko'rib chiqilsin", deb belgilab qo'yildi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi hududiy yong'in xavfsizligi qismlari Navoiy viloyatidan tashqari Buxoro, Samarqand, Jizzax viloyatlarida joylashgan bo'lib, kombinat tasarrufidagi maskanlar orf-tishi bilan boshqarma quyi tizimlari xizmat ko'rsatish xaritasi kengayib bormoqda.

## XAVF BILAN YUZMA – YUZ TURGANDA

Yong'in xavfsizligi xizmati xodimlari kasbiy burchlarini favqulodda sharoitlarda ado etishadi. 1926-yildan boshlab yong'in o'chiruvchilar kasbi xavf darajasi bo'yicha yuqori, ya'ni 5 – 6 kategoriyaga kiritilgandir.

Amerika va nemis mutaxassislarining ma'lumotlariga qaraganda, yong'in o'chiruvchilar hayotdan ko'z yumishlarining asosiy sabablaridan biri bu – tutundan zaharlanish, infarkt, yong'indan kuyish oqibatidir. Yong'in va avariyalarda yuzaga keladigan murakkab vaziyatlar va yuqorida qayd etilgan sabablar jamlanmasi shuni ko'rsatadi, yong'in o'chiruvchilar yurak – qon tomir kasalliklariga, arterial qon bosim ko'tarilishiga, yuqori nafas yo'llari va ruhiy xastaliklarga tez-tez uchraydigan bo'lib qolishadi. Yurak xastaligi kasalligiga olib kelishi mumkin bo'lgan sabablardan biri bu zaharli tutun, uglerod oksidlar bilan nafas olishdir. Muntazam ravishda tutun bilan nafas olish oqibatida oshqozon – ichak, infarkt, qon bosimi, bronxit va onkologik kasalliklariga uchrash ehtimoli ko'payadi. Havo tarkibida kislorod miqdori 16 foizdan kam bo'lgan muhitlarda ishlashda organizm kislorod tanqisligini sezadi, natijada miya va tana ishlash funksiyasi o'zgaradi. Yong'in vaqtida ajraladigan tutun tarkibida narkotik, ruhiy-paralitativ va konsirogen kabi zaharli moddalar mavjud bo'ladi.

В Узбекистане уже много лет активно развивается движение КВН – школа юмора, творчества и настоящей командной дружбы. На сцене Дворца культуры «Фархад» впервые собрались команды трудящихся НГМК клуба веселых и находчивых в 1986 году, а это не мало аж 40 лет! С тех пор молодёжь комбината учится не только шутить, но и мыслить, выступать на сцене, работать вместе и дарить людям хорошее настроение. Одним из самых ярких представителей этого движения стала команда «9999» город Зарафшан ДК «Олтин водий», которая за годы своего существования сумела завоевать любовь зрителей и добиться серьёзных успехов на различных сценах.



## Команда, которая живёт КВНом

История команды тесно связана с играми КВН, которые на протяжении многих лет проходят во Дворце культуры «Фархад» среди команд площадок НГМК. Именно здесь многие участники команды впервые вышли на сцену, почувствовали атмосферу игры и сделали первые шаги в мире юмора и творчества. Со временем команда «9999» превратилась в сильный и сплочённый коллектив. Их выступления всегда отличаются яркой подачей, оригинальными шутками и живой энергетикой, которая моментально передаётся зрителю в залу. Настоящий творческий взлёт начался в 2016 году, когда команда заняла лауреатное третье место в Республиканской лиге КВН в Ташкенте. С этого момента о коллективе заговорили уже далеко за пределами родного города. В последующие годы команда продолжила уверенно укреплять свои позиции. В 2022 году участники стали победителями областного и регионального этапов конкурса «Беш ташаббус», а также заняли третье место на республиканском уровне. Особое место в копилке достижений занимают награды кубка Совета молодёжи СП НГМК и Союза молодёжи НГМК. Команда становилась лауреатом номинаций «Энг яхши фрестайл», «Энг яхши мусикий биатлон», «Энг яхши видеоролик», «Энг яхши мусикий фрестайл», «Энг яхши мусикий уйга вазифа», «Энг яхши таништирув», а также была отмечена номинацией «ҚВЗга булган садокат». В 2022 году команда заняла третье место в кубке Совета молодёжи СП НГМК и Союза молодёжи НГМК. В 2024 году – уже первое место. Кроме того, коллектив дважды становился бронзовым призёром игр «Олтин лига НКМК ҚВЗ» и дважды – в 2023 и 2025 годах – поднимался на высшую ступень пьедестала, став чемпионом «Олтин лига НКМК». Но за лёгкостью сценических шуток скрывается серьёзная

работа. Репетиции, написание сценариев, подготовка номеров, поездки на игры – всё это требует времени, энергии и полной самоотдачи. Для участников команды КВН – это не просто увлечение, а настоящая часть жизни. Большую роль в успехах команды играет её руководитель – С.Бахронов, человек, который не понаслышке знает, что такое КВН. В прошлом он сам был игроком и прошёл серьёзную школу юмора на сцене. С.Бахронов является чемпионом «Золотой лиги НГМК», а также принимал участие в играх Высшей лиги КВН Узбекистана. Сегодня он передаёт свой опыт молодым участникам команды. Его называют не только руководителем, но и настоящим наставником, который умеет поддержать, вдохновить и направить команду в нужное русло. Благодаря его энергии, требовательности и вере в ребят команда «9999» постоянно развивается и не боится ставить перед собой новые цели. Несмотря на насыщенный график репетиций и выступлений, у команды всегда надёжная поддержка – их семьи и друзья. Родные переживают за ребят, радуются их победам и гордятся тем, что они представляют родной город на различных сценах. Сегодня команда «9999» по праву считается одной из самых ярких и узнаваемых в ҚВЗ НКМК. Их выступления собирают полные залы, а зрители всегда уходят с концертов с улыбками и хорошим настроением. Но самое главное – команда продолжает двигаться вперёд. У ребят множество новых идей, творческих планов и проектов. А значит впереди – новые сцены, новые шутки и, конечно же, новые победы. Потому что для них КВН – это не просто игра. Это стиль жизни.

Наргиза ХАМИДОВА,  
руководитель группы по организации культурно-спортивной деятельности ГУ «Фонд НГМК».